

# MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TAQDIM ETISHNING KONSEPTUAL ASOSNING MAQSADI

Z.T.Mamanov<sup>1</sup> 

1. University of Economics and Pedagogy, Andijon, O'zbekiston.

**Correspondence:** Mamanov Zafarjon Tavbayevich, University of Economics and Pedagogy, Andijan, Uzbekistan.

**e-mail:** mamanovzafarjon@mail.ru

**Received:** 22 May 2025; **Accepted:** 05 June 2025; **Published:** 10 June 2025.

**Abstract. Mavzuning dolzarbliji.** Moliyaviy hisobotlar tashkilotlarning moliyaviy holatini aniq va ishonchli ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy hisobotlar asosida investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar iqtisodiy qarorlar qabul qiladilar. Shu sababli, moliyaviy hisobotlarning sifati, aniqligi va umumiyligini qabul qilingan tamoyillarga muvofiqligi ta'minlanishi shart. Konseptual asos bu jarayonda muhim o'rinni tutadi. **Tadqiqot materiallari va usullari.** Konseptual asos Kengashning u bilan ishlash tajribasini inobatga olgan holda vaqtiga vaqtiga bilan qayta ko'rib chiqadi. Konseptual asosning qayta ko'rib chiqilishi standartlarni o'zgartirilishiga olib kelmaydi. Standartga o'zgartirish kiritish bo'yicha har qanday qaror Kengashdan yangi loyihani o'z ishchi dasturiga kiritish, ushbu standartga kiritiladigan o'zgartirishni ishlab chiqishning belgilangan tartib va taomili bajarilishini talab qiladi. **Tadqiqot natijalari.** Konseptual asos umumiyligini maqsaddagi moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishda asosiy yo'riqnomasi hisoblanadi. U MHXS standartlarini ishlab chiqishda Kengashga ko'maklashadi, moliyaviy hisobot tayyorlovchilarga standartlar yo'q bo'lganda yordam beradi va standartlarni tushunishda barcha foydalanuvchilarga qo'llab-quvvatlovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. **Xulosa.** Moliyaviy ma'lumotlarning shaffofligi, hisobdorligi va sifatini yaxshilash orqali jahon moliya bozorida ishonchni oshirishga yordam beradi.

**Keywords.** konseptual asos, umumiyligini maqsaddagi moliyaviy hisobotlarni, tamoyillar, MHXS, standartlar, Kengash, muayyan operatsiya, hisob siyosati, MHXS fondi, shaffoflik.

## Kirish

### Mavzuning dolzarbliji.

Moliyaviy hisobotlar tashkilotlarning moliyaviy holatini aniq va ishonchli ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy hisobotlar asosida investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar iqtisodiy qarorlar qabul qiladilar. Shu sababli, moliyaviy hisobotlarning sifati, aniqligi va umumiyligini qabul qilingan tamoyillarga muvofiqligi ta'minlanishi shart. Konseptual asos bu jarayonda muhim o'rinni tutadi. U umumiyligini maqsaddagi moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishning asosiy maqsadlari va tamoyillarini belgilaydi, shu bilan birga, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari kengashiga (Kengash) standartlarni ishlab chiqishda va amaliyotda qo'llashda qo'llanma vazifasini o'taydi.

### Tadqiqot materiallari va usullari.

### Asosiy qism

"Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi"<sup>[1]</sup> umumiyligini maqsaddagi moliyaviy hisobotlarni taqdim etish maqsadi va tamoyillarini sharhlab beradi.

Konseptual asosda quyidagilar tavsiflanadi:

- konseptual asosning maqomi va maqsadi;
- umumiyligini maqsaddagi moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning maqsadi;
- foydali moliyaviy ma'lumotning sifat tavsiflari;
- moliyaviy hisobot va hisobot beruvchi tashkilot;
- moliyaviy hisobot elementlari;

- tan olish va tan olishni bekor qilish;
- baholash;
- ma'lumotni taqdim etish va yoritib berish;
- kapital va kapitalni saqlab turish konsepsiylari.

Konseptual asosning maqsadi quyidagilardan iborat[2]:

(a) izchil tamoyillarga asoslangan MHXS standartlarini (Standartlar) ishlab chiqishda Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari kengashiga (Kengash) ko'mak berish;

(b) muayyan operatsiya yoki boshqa hodisaga nisbatan qo'llanadigan standart mayjud bo'Imaganda yoki muayyan standartda hisob siyosatini tanlashga ruxsat berilganda, moliyaviy hisobot tayyorlovchilarga ko'mak berish; va

- (v) standartlarni tushunish va talqin qilishda barcha taraflarga ko'mak berish.

"....Moliyaviy hisobotning konseptual asosi standart hisoblanmaydi. Konseptual asos moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim qilish asoslarini tashkil qiluvchi qoidalarni belgilaydi...."[3]

"Konseptual asos standart emas. Konseptual asosning hech bir qoidasi har qanday standart yoki standart talabidan ustun emas. Konseptual asos standartlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi"[4].

"Konseptual asos standart hisoblanmaydi. Konseptual asosning hech bir qoidasi biror standart yoki standart talabidan ustun hisoblanmaydi"[2]

Demak, konseptual asos bu standart emas va konseptual asosning qoidalari biror standartdan yoki standart talabidan ustun bo'lib hisoblanmaydi.

Umumi maqsaddagi moliyaviy hisobotlarni taqdim etish maqsadiga erishish uchun Kengash ba'zan konseptual asosda bayon etilgan tamoyillarning ayrim jihatlarini chetlab o'tadigan aniq talablarni belgilaydi. Bunday hollarda Kengash chetlab o'tishni tegishli standartga xulosalarda tushuntirib beradi.

Konseptual asos Kengashning u bilan ishlash tajribasini inobatga olgan holda vaqtiga qayta ko'rib chiqadi. Konseptual asosning qayta ko'rib chiqilishi standartlarni o'zgartirilishiga olib kelmaydi. Standartga o'zgartirish kiritish bo'yicha har qanday qaror Kengashdan yangi loyihani o'z ishchi dasturiga kiritish, ushbu standartga kiritiladigan o'zgartirishni ishlab chiqishning belgilangan tartib va taomili bajarilishini talab qiladi.

Konseptual asos faqat MHXS fondi va uning tarkibidagi Kengashning missiyasini bajarilishiga ko'mak beradi. Kengashning missiyasi butun jahon moliya bozorlarining shaffofligi, hisobdorligi va samaradorligini ta'minlaydigan standartlarni ishlab chiqishdan iborat bo'lib hisoblanadi. Kengash faoliyati global iqtisodiyot doirasida ishonch, o'sish va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni rag'batlantirish orqali jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi.

Konseptual asos standartlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi va u[2]:

(a) investorlar va bozorning boshqa ishtirokchilariga asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkonini berish uchun moliyaviy ma'lumotni xalqaro darajada qiyosiyiligidini va sifatini oshirish hisobiga shaffoflikka erishishga ko'maklashadi;

(b) kapital egalari va ular tomonidan o'z pul mablag'lari ishonib topshirilgan shaxslar o'tasida ma'lumotlar bo'shilg'ini kamaytirish orqali hisobdorlikni kuchaytiradi. Konseptual asosga asoslangan standartlar rahbariyatning hisobdorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan talablarni o'z ichiga oladi. Ma'lumotga nisbatan global darajada qiyoslanish talablarining manbai bo'lgan holda, bunday standartlar butun jahon bo'yicha tartibga soluvchi organlar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

(v) investorlarga butun jahon bo'yicha imkoniyatlar va risklarni aniqlashga yordam berish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi, buning natijasida kapital taqsimlanishi yaxshilanadi.

Tashkilotlar uchun Konseptual asosga asoslangan standartlarda foydalaniladigan buxgalteriya hisobining yagona ishonchli tilidan foydalanish kapitalni jalb qilish sarflarini kamaytiradi va xalqaro moliyaviy hisobotni tayyorlash bo'yicha sarflarni qisqartiradi.

### **Xulosa**

Konseptual asos umumi maqsaddagi moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishda

asosiy yo'riqnomasi hisoblanadi. U MHXS standartlarini ishlab chiqishda Kengashga ko'maklashadi, moliyaviy hisobot tayyorlovchilarga standartlar yo'q bo'lganda yordam beradi va standartlarni tushunishda barcha foydalanuvchilarga qo'llab-quvvatlovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, u moliyaviy ma'lumotlarning shaffofligi, hisobdorligi va sifatini yaxshilash orqali jahon moliya bozorida ishonchni oshirishga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

[1] "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi" Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari kengashi tomonidan 2010 yil sentabrda e'lon qilingan. U 2018 yil mart oyida qayta ko'rib chiqilgan

[2] O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022 yil 10 noyabrdagi 61-son buyrug'iga 1-ILOVA "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi"

[3] Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2019. – 227 b.

[4] Международные стандарты финансовой отчетности [Электронный ресурс] : учеб. пособие / авт.-сост. А. А. Мишин ; Владим. гос. ун-т им. А. Г. и Н. Г. Столетовых. – Владимир : Изд-во ВлГУ, 2023. – 417 с.